2026-yil
9-son

“FAN VA TA’LIM YANGILIKLARI”

ILMIY - METODIK

JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Bosh muharrir:
Shoumarov G‘ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori, akademik

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Qodirov Umarali Do‘stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Mas’ul kotib:
Muqimov Alisher

Texnik muharrir:
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

TAHRIR HAY’ATI:

01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI
Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
A’zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik
Zohidov Erkin A’zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

02.00.00 – KIMYO FANLARI
Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik

03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI
Abdurahmonov Ibrohim Yo‘lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik
Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik

04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI
Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor
Husanov Sultonboy To‘xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

05.00.00 – TEXNIKA FANLARI
Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori, akademik
Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor
Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori, akademik
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI
Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, akademik
Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, professor

07.00.00 – TARIX FANLARI
Ziyo Azamat Hamid o‘g‘li, tarix fanlari doktori, akademik
Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik
Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik
Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi
To‘xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik
G‘ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

09.00.00 – FALSAFA FANLARI
Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor
Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik
Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)

11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI
Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor

12.00.00 – YURIDIK FANLAR
Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor
Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik
Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor
Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI
Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik
Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik
Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI
Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor
Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik

15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI
Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor
Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor

16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI
Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor
Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor
G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor

17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI
Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor
Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik

18.00.00 – ARXITEKTURA
Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor
Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI
Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor
Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor
Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya
Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya
Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI
Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR
Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor
Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori
Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori

24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI
Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik
Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
9-son

UDK: 376.2/.5:398:37.014.2

XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITASIDA IMKONIYATI CHEKLANGAN O‘QUVCHILARDA IJTIMOIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Nasriddinova Feruza Abduvohidxo‘jayevna,
Namangan davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalq og‘zaki ijodi vositasida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik modeli nazariy-metodologik jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda shaxsga yo‘naltirilgan va madaniyatshunoslikka asoslangan yondashuvlarning o‘zaro uyg‘unligi, xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali o‘quvchilarning kognitiv, kreativ, kommunikativ, tashkiliy-faoliyatli hamda refleksiv imkoniyatlarini rivojlantirish masalalari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, imkoniyati cheklangan o‘quvchilar, ijtimoiy faollik, pedagogik model, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ У ОБУЧАЮЩИХСЯ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ ПОСРЕДСТВОМ УСТНОГО ФОЛЬКЛОРА

Аннотация. В статье теоретико-методологически обосновывается педагогическая модель развития социальной активности учащихся с ограниченными возможностями посредством устного народного творчества. Раскрывается взаимосвязь личностно ориентированного и культурологического подходов, а также педагогические возможности фольклорных произведений в развитии когнитивных, творческих, коммуникативных, организационно-деятельностных и рефлексивных способностей учащихся.

Ключевые слова: устное народное творчество, учащиеся с ограниченными возможностями, социальная активность, педагогическая модель, личностно ориентированный подход.

A PEDAGOGICAL MODEL FOR DEVELOPING SOCIAL ENGAGEMENT IN STUDENTS WITH DISABILITIES THROUGH ORAL FOLKLORE

Abstract. The article theoretically and methodologically substantiates a pedagogical model for developing social activity among students with disabilities

through oral folk art. It examines the integration of learner-centered and cultural approaches and reveals the pedagogical potential of folklore materials for developing students' cognitive, creative, communicative, organizational-activity and reflective capacities.

Keywords: oral folk art, students with disabilities, social activity, pedagogical model, learner-centered approach, cultural approach.

Ta'lim jarayonida o'quvchining faqat bilimlarni o'zlashtirishi emas, balki ijtimoiy munosabatlarga kirishishi, o'z fikrini ifodalashi, mustaqil tanlov qilishi, jamoaviy faoliyatda ishtirok etishi va ijodiy tashabbus ko'rsatishi ham muhim natija hisoblanadi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun ta'lim muhiti ularning individual imkoniyatlarini namoyon etish, ijtimoiy tajribani o'zlashtirish va o'z shaxsiy tajribasini mazmunli faoliyatga aylantirish imkonini beradigan tarzda tashkil etilishi zarur.

Xalq og'zaki ijodi ana shunday pedagogik imkoniyatlarga ega manbalardan biridir. Ertak, maqol, topishmoq, xalq o'yinlari, afsona va boshqa folklor namunalari mazmunida insoniy munosabatlar, hamkorlik, mehnat, ezgulik, adolat, mas'uliyat, jasorat va tanlov kabi ijtimoiy-axloqiy mazmunlar mujassam. Shu sababli ularni o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlari bilan bog'lab o'rganish ijtimoiy faollikni rivojlantirish uchun didaktik asos yaratadi.

Tadqiqotning dolzarbligi xalq og'zaki ijodini o'rganish jarayonida imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ijtimoiy faolligini yaxlit pedagogik model asosida rivojlantirish masalasining yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi bilan belgilanadi. Mazkur yondashuvda folklor materiali shunchaki o'quv obyekti sifatida emas, balki o'quvchining shaxsiy tajribasi, ijodiy faoliyati va ijtimoiy munosabatlarini rivojlantiruvchi pedagogik vosita sifatida qaraladi [1.88-112 b].

Maqolaning maqsadi –xalq og'zaki ijodi vositasida imkoniyati cheklangan o'quvchilarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish va uning tarkibiy qismlari hamda pedagogik shart-sharoitlarini nazariy jihatdan asoslash.

Tadqiqot vazifalari: ijtimoiy faollikni shaxsning integrativ sifati sifatida tavsiflash; xalq og'zaki ijodining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash; shaxsga yo'naltirilgan va madaniyatshunoslik yondashuvlarini uyg'unlashtirish; pedagogik modelning tarkibiy qismlarini belgilash; folklor materiallarini tanlash va o'quv vaziyatlarini loyihalash mezonlarini aniqlash; ijtimoiy faollikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini asoslash.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, madaniyatshunoslikka asoslangan, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarning uyg'unligi tashkil etadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv o'quvchining individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishni, uning ta'lim jarayonidagi subyektiv mavqeini kuchaytirishni nazarda tutadi. Madaniyatshunoslik

yondashuvi esa ta'lim mazmunini milliy madaniyat va ijtimoiy tajriba bilan bog'lash imkonini beradi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik modellashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish va pedagogik kuzatish kabi usullardan foydalanishning ilmiy imkoniyatlari asos qilib olindi. Mazkur usullar orqali xalq og'zaki ijodi namunalari mazmuni va ularning o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi [2. 124 –128 b].

Ijtimoiy faollik ushbu tadqiqotda o'quvchining o'z mohiyatini namoyon etishi, o'z imkoniyatlarini faoliyatda amalga oshirishi, muloqotga kirishishi, ijodiy tashabbus ko'rsatishi va ijtimoiy vaziyatlarda mustaqil harakat qila olishini birlashtiruvchi murakkab integrativ sifat sifatida talqin qilinadi. U kognitiv, kreativ, kommunikativ, tashkiliy-faoliyatli va refleksiv jihatlarning o'zaro aloqadorligi asosida namoyon bo'ladi.

Xalq og'zaki ijodi vositasida ijtimoiy faollikni rivojlantirish jarayonining samaradorligi, avvalo, ta'lim mazmunining qanday tanlanishi va o'quvchi faoliyatining qanday tashkil etilishiga bog'liq. Ta'lim mazmunida bilim, ijodiy faoliyat tajribasi, hissiy-qadriyatli munosabat va ijtimoiy tajriba bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yagona pedagogik tizim sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

Bunda xalq og'zaki ijodi namunalari o'quvchi uchun tushunarli, qiziqarli, mazmunan hayotiy va faoliyatga undovchi bo'lishi kerak. Masalan, topishmoqlar kuzatuvchanlik va fikrlashni, ertaklar voqealar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini anglashni, xalq o'yinlari hamkorlik va jamoaviy harakatni, maqollar esa muayyan hayotiy vaziyatga nisbatan baho berish va tanlov qilishni rivojlantirish uchun qo'llanishi mumkin.

Pedagogik modelni quyidagi mantiqiy tizimda ifodalash mumkin: maqsad → mazmun → pedagogik shart-sharoitlar → metod va vositalar → o'quv faoliyati → refleksiv baholash → kutiladigan natija. Mazkur ketma-ketlik o'quvchining folklor materialini bilishidan uni shaxsiy tajribada qo'llashgacha bo'lgan harakatini ta'minlaydi.

Komponent	**Mazmuni**	**Asosiy faoliyat**	**Kutiladigan natija**
Maqsadli	Ijtimoiy faollikni rivojlantirish maqsadi	Maqsad qo'yish, motivatsiya	Faol ishtirok etishga ichki ehtiyoj
Mazmunli	Folklor, milliy qadriyatlar, ijtimoiy tajriba	Ertak, maqol, topishmoq, o'yinlarni o'rganish	Mazmunni anglash va qadriyatli munosabat

Jarayonli	Shaxsga yo‘naltirilgan va integrativ faoliyat	Muammoli vaziyat, guruhli ish, ijodiy topshiriq	Muloqot, hamkorlik, tashabbus
Refleksiv	O‘z faoliyatini baholash va tuzatish	O‘z-o‘zini baholash, fikr almashish	Mustaqil xulosa va o‘z faoliyatini tahlil qilish
Natijaviy	Ijtimoiy faollikning shakllangan darajasi	Ijtimoiy va ijodiy loyihalar	Kognitiv, kreativ, kommunikativ va tashkiliy faollik

Modelning maqsadli komponenti o‘quvchida xalq og‘zaki ijodini o‘rganishga ijobiy motivatsiya va ijtimoiy faoliyatga ehtiyoj hosil qilishga qaratiladi. Mazmunli komponent folklor materiallarini o‘quvchining hayotiy tajribasi bilan bog‘laydi. Jarayonli komponentda faol, interfaol va ijodiy metodlardan foydalaniladi. Refleksiv komponent esa o‘quvchining bajargan faoliyatini anglash, natijani baholash va keyingi harakatini rejalashtirishiga xizmat qiladi [3. 96–98 b].

Modelning muhim xususiyati shundaki, o‘quvchi tayyor bilimni passiv qabul qiluvchi emas, balki mazmunni faol o‘zlashtiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Bunda individual ta’limiy yo‘nalishlarni tanlash imkoniyati o‘quvchining mavjud qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos faoliyatni belgilashga yordam beradi.

Xalq og‘zaki ijodi namunalarini tanlash mezonlari:Ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladigan folklor materiallarini tanlashda bir nechta mezonlarga tayanish lozim. Birinchidan, mazmuniy moslik mezoni: namuna o‘quvchilarda insoniy munosabatlar, hamkorlik, mas’uliyat va qadriyatlar haqida fikr yuritishga imkon berishi kerak. Ikkinchidan, yosh va individual imkoniyatlarga moslik mezoni: matnning murakkabligi, hajmi, til xususiyatlari va topshiriqlar o‘quvchining real imkoniyatlariga moslashtiriladi. Uchinchidan, faoliyatga yo‘naltirilganlik mezoni: namuna o‘quvchini gapirish, tinglash, ijod qilish, tanlash, hamkorlik qilish yoki muammoni hal etishga undashi zarur.

To‘rtinchidan, hududiy-madaniy mezon muhimdir. Mahalliy folklor namunalari o‘quvchining o‘z yashash hududi, oilasi va jamiyatiga tegishlilik hissini kuchaytirishi mumkin. Bunda hududiy xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish milliy madaniyatni umumiy mazmun bilan bog‘lashga xizmat qiladi [5. 112–115 b].

Pedagogik shart-sharoitlar: Birinchi pedagogik shart-sharoit –o‘quvchilarning xalq og‘zaki ijodini o‘rganishga va folklor namunalarini shaxsiy ijodiy faoliyatida talqin qilishga undovchi shaxsiy mazmunni boyitish. Buning uchun mavjud bilimlarni tizimlashtirish, folklor asarlarini ifodali bayon qilish, ularning ma’naviy-

axloqiy ahamiyatini anglash, ijodiy faoliyatni faollashtirish va refleksiv fikrlashni rivojlantirish zarur.

Ikkinchi pedagogik shart-sharoit – xalq og‘zaki ijodini o‘rganish jarayonida fanlararo integratsiyani ta’minlash. Folklor mazmunini ona tili va adabiyot, musiqa, tasviriy san’at, tarix, tarbiya va boshqa fanlar bilan bog‘lash o‘quvchining yaxlit tasavvurini shakllantiradi. Integratsiya jarayonida bitta folklor namunasi turli fanlar nuqtayi nazaridan tahlil qilinishi va yakunda ijodiy mahsulot bilan yakunlanishi mumkin.

Uchinchi pedagogik shart-sharoit – hududiy xalq og‘zaki ijodining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish. O‘quvchilarni mahalliy folklor namunalarini to‘plash, oilaviy xotiralar va mahalliy an’analar haqida suhbatlashish, xalq bayramlari va jamoaviy tadbirlarda ishtirok etish, kichik tadqiqot topshiriqlarini bajarishga jalb etish ularning ijtimoiy tajribasini kengaytiradi.

Ijtimoiy faollikni rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlari: Pedagogik modelning amaliy mexanizmi o‘quv vaziyatlarini maqsadli loyihalash orqali amalga oshiriladi. O‘quv vaziyati o‘quvchini muayyan muammo, tanlov yoki ijodiy vazifa oldida faol harakat qilishga undashi kerak. Bunda vaziyatning yakuniy natijasi faqat to‘g‘ri javobni topish bilan emas, balki o‘quvchining qanday fikrlagani, boshqalar bilan qanday hamkorlik qilgani va o‘z faoliyatini qanday baholagani bilan ham belgilanadi.

Masalan, ertak asosida “Qahramon o‘rnida bo‘lsangiz, qanday yo‘l tutardingiz?” savoli berilib, o‘quvchilar turli yechimlarni taklif qilishi mumkin. Maqol asosida hayotiy vaziyat berilib, o‘quvchidan o‘z tanlovini asoslash so‘raladi. Topishmoqlar orqali guruhli fikrlash tashkil qilinadi. Xalq o‘yinlari esa navbat kutish, qoidaga rioya qilish, sherikni qo‘llab-quvvatlash va umumiy natijaga erishish kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

Bunday vaziyatlarda topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish maqsadga muvofiq: muammoni anglash → vaziyatni tahlil qilish → maqsad qo‘yish → zarur vositalarni aniqlash → faoliyat usulini tanlash → faoliyatni bajarish → natijani baholash → zarur tuzatish kiritish. Mazkur ketma-ketlik o‘quvchining mustaqil faoliyat tajribasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy faollik mezonlari va ko‘rsatkichlari

Mezon	**Ko‘rsatkichlar**	**Kuzatiladigan faoliyat**
Motivatsion	Folklorga qiziqish, faol ishtirok ehtiyoji	Tashabbus bilan topshiriq bajarish
Kognitiv	Folklor mazmunini tushunish, tahlil qilish	Savollarga asoslangan javob, xulosa
Kommunikativ	Fikr bayon qilish, tinglash, hamkorlik	Juftlik va guruhdagi muloqot

Kreativ	Yangi talqin va ijodiy mahsulot yaratish	Hikoya, sahna, rasm, musiqa yoki loyiha
Tashkiliy-faoliyatli	Vazifani rejalashtirish va bajarish	Rollarni taqsimlash, qoidaga rioya
Refleksiv	O‘z faoliyatini baholash	O‘z-o‘zini baholash va xulosa

Mazkur mezonlar o‘quvchining ijtimoiy faolligini faqat natija orqali emas, balki faoliyat jarayonidagi o‘zgarishlar orqali ham kuzatish imkonini beradi. Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning individual farqlari hisobga olinib, baholashda yagona qat’iy qolipdan ko‘ra, o‘quvchining shaxsiy rivojlanish dinamikasiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq [7. 67-69].

Tadqiqot natijasida xalq og‘zaki ijodi vositasida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishni shaxsga yo‘naltirilgan, madaniyatshunoslikka asoslangan va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar integratsiyasi asosida tashkil etish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Ijtimoiy faollik o‘quvchining kognitiv, kreativ, kommunikativ, tashkiliy-faoliyatli va refleksiv imkoniyatlarini birlashtiruvchi integrativ sifat sifatida namoyon bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi esa mazkur sifatlarni rivojlantirish uchun mazmuniy va faoliyatga yo‘naltiruvchi imkoniyatga ega. Ertak, maqol, topishmoq va xalq o‘yinlarini maqsadli tanlash hamda hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash o‘quvchining ijtimoiy tajribasini kengaytiradi.

Pedagogik modelning samaradorligini ta’minlovchi asosiy shartlar sifatida: birinchidan, o‘quvchining shaxsiy mazmunini boyitish; ikkinchidan, fanlararo integratsiyani ta’minlash; uchinchidan, hududiy folklor xususiyatlarini hisobga olish belgilandi. Mazkur shartlar o‘quvchining milliy-madaniy tajribani o‘zlashtirishi bilan birga, uni shaxsiy faoliyatda qayta talqin qilishi va ijtimoiy munosabatlarda qo‘llashi uchun sharoit yaratadi.

Amaliy jihatdan ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlar, ijodiy topshiriqlar, guruhli ishlar, folklor namunalarini sahnalashtirish, mahalliy folklor materiallarini o‘rganish, kichik tadqiqot va ijtimoiy-ijodiy loyihalardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunda topshiriqlar o‘quvchining individual imkoniyatlariga moslashtirilishi va uning mustaqil tanlovini qo‘llab-quvvatlashi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Imomov K. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017. – 326 b.
2. Sirojiddinov Sh. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va uning pedagogik imkoniyatlari. – Toshkent: ilmiy-uslubiy nashrlar. 2009. – 225 b.
3. Jo‘rayev M. O‘zbek folklorshunosligi: nazariya va amaliyot masalalari. – Toshkent: Fan nashriyoti.2011. – 350 b.
4. Qodirov M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi: janrlar va badiiy xususiyatlar. – Toshkent: O‘qituvchi.2007. – 245 b.
5. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya.2012. –420 b.
6. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Matnazarova K., Shirinov M., Hafizov S. Pedagogika. – Toshkent: O‘qituvchi.2018. –328 b.
7. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 428 p.
8. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 280 b.

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
9-son

Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ
Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
E-mail: saen_2024@mail.ru
Jurnal sayti: www.saen.uz
Telegram kanali: **https://t.me/saen_2024**

Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

ISSN: 3093-8694